


ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1-fevral holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-fevral holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 27 455 tani tashkil etadi, shundan 21 944 tasi yoki 79,9 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025-yilning shu davriga nisbatan 107,6 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 108,4 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	27 455	22 083	21 944
2025	25 518	20 371	20 235
2024	29 885	24 678	24 542
2023	43 009	37 699	37 546
2022	41 377	36 037	35 904

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Andijon shahrida – 26,7 foiz, Andijon – 8,3 foiz, Asaka – 7,8 foiz, Shahrixon – 7,0 foiz va Baliqchi – 5,8 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidagi salmoqli ulushi Andijon tumanida – 84,7 foiz va 84,4 foiz, Andijon shahrida – 84,5 foiz va 83,7 foiz, Xonobod shahrida – 80,6 foiz va 80,0 foiz, Xo'jaobod – 80,0 foiz va 79,2 foiz, Oltinko'l – 80,0 foiz va 79,6 foiz hamda Marxamat – 79,9 va 79,1 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Oltinko'l tumani	1 467	1 174	1 168
Andijon tumani	2 272	1 924	1 918
Baliqchi tumani	1 595	1 269	1 264
Bo'ston tumani	999	797	793
Buloqboshi tumani	821	613	608
Jalolquduq tumani	1 166	861	858
Izboskan tumani	1 454	1 140	1 139
Ulug'nor tumani	830	662	658
Qo'rg'ontepa tumani	1 367	1 027	1 021
Asaka tumani	2 141	1 690	1 680
Marxamat tumani	1 246	995	986
Shahrixon tumani	1 911	1 505	1 500
Paxtaobod tumani	1 158	873	870
Xo'jaobod tumani	1 182	946	936
Andijon sh.	7 340	6 199	6 140
Xonobod sh.	506	408	405

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1-fevral holatiga 29,7 foizni (36,9 foiz va 37,0 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 17,1% (21,1% va 21,0%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 6,4% (7,8% va 7,8%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 314	1 277	1 269
Sanoat	4 686	4 664	4 609
Qurilish	1 752	1 731	1 719
Savdo	8 142	8 139	8 117
Tashish va saqlash	755	750	741
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 336	1 335	1 333
Axborot va aloqa	464	456	455
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 242	956	955
Boshqa turlar	7 764	2 775	2 746

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-fevral holatiga ko'ra, 22 083 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 19 236 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	19 236	87,1
Xususiy korxonalar	1 528	6,9
Oilaviy korxonalar	1 059	4,8
Aksiyadorlik jamiyati	34	0,2
Boshqalar	226	1,0

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, 2026-yilning 1-fevral holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 435 ta korxonalardan 132 tasi qo'shma korxonalar va 303 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yilning 1-fevral holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 120 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 55 tadan 105 taga, (o'sish 50 taga), sanoat sohasida 154 tadan 188 taga (o'sish 34 taga) va qurilish sohasida 25 tadan 43 taga (o'sish 18 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	435	132	303
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20	9	11
Sanoat	188	77	111
Qurilish	43	7	36
Savdo	105	19	86
Tashish va saqlash	11	4	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12	1	11
Axborot va aloqa	13	1	12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	2	4
Boshqa turlar	37	12	25

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 165 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,9 foizini tashkil etdi. Shuningdek, viloyatimiz iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (15,2%), Turkiya (13,8%), Qirg'iz Respublikasi (11,3%) va Janubiy Koreya (6,9%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	435	132	303
Xitoy	165	36	129
Rossiya	66	29	37
Turkiya	60	15	45
Qirg'iz Respublikasi	49	13	36
Janubiy Koreya	30	15	15
Singapur	10	2	8
BAA	8	3	5
Tojikiston	8	2	6
Hindiston	7	2	5
Belorusiya	6	3	3
AQSH	4	1	3
Qozog'iston	4	2	2
Ozarbayjon	2	-	2
Boshqalar	16	9	7

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul: Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi	Ijrochi: Z. Sidikov 74 228-29-70 (6060)	Maznil: 170100, Andijon sh., Milliy tiklanish ko'chasi, 36 A
--	--	---